

Ingliz adabiyoti rivojida Shekspir ijodining tutgan o‘rni

Sanobar Fayziyeva

Sharof Rashidov tumani

1-umumta’lim maktabi ingliz tili

fani o‘qituvchisi

Shekspirning adabiy merosi she’riyat va dramaturgiya asarlaridan iborat. Yoshlik yillarida mifologik syujet asosida yozgan «Venera va Adonis» (1593) hamda Rim tarixiga oid «Lukretsiya» (1594) dostonlari samimiy kutib olingan. Bu asarlar, ayniqsa, 1592-1600-yillarda yozilgan «Sonetlar» Shekspirning Uyg‘onish davri madaniyati bilan uzviy aloqada maydonga kelganini ko‘rsatdi. Jahon lirikasining buyuk namunalari qatoridan o‘rin olgan Shekspir sonetlari mavzu jihatidan 2 guruhga ajraladi: dastlabki 126 sonet shoirning yaqin do‘stiga bag‘ishlangan bo‘lsa, 127-152-sonetlarda lirik qahramonning bevafoqlik qilgan mahbubaga nisbatan muhabbat tuyg‘usi va iztiroblari tasvir etilgan. Shekspir yana bir necha dostonlar ham yozgan bo‘lsada, ularning muallifi masalasi hamon bahslidir.

Shekspir asarlarining nashr sanalari ularning na yozilgan va na sahnaga qo‘yilgan vaqtiga to‘g‘ri keladi. Shekspir bir necha qismdan iborat asarlarining avval 2-3-qismlarini, keyin 1-qismini yozgan paytlar ham bo‘lgan. Shuning uchun adabiyotshunoslar Shekspirning dramaturgik ijodini 4 davrga bo‘lib o‘rganishni ma’qul ko‘radilar: 1-davr - 1590-94, 2-davr 1594-1600, uchinchi davr 1600-1608, to‘rtinchi davr 1609-1613-yillar. Shekspir dramaturgik ijodining 1-davrda doston, ilk tragediya («Tit Andronik») va komediyalar («Xatolar komediyasi», «Qiyiq qizning tiyilishi»)dan tashqari, «Genrix VI» (2-qism, 1590), «Genrix VI» (3qism, 1591), «Genrix VI» (1-qism, 1592), «Richard III» (1593) ilk xronikalarini yozgan. 2-davrda «Richard II» (1595) «tragediyaga yaqin xronika»si, «Genrix IV» (1qism, 1597), «Genrix IV» (2-qism, 1598) va (1594), «Yoz tunidagi tush», «Venetsiya savdogari» (1596) romantik komediyalari hamda «Romeo va Julyetta» (1595) tragediyasini yozgan. Uning «Yo‘q joydan chiqqan g‘avg‘o» (1598), «O‘n ikkinchi kecha» (1600) singari mashhur komediyalari ham shu davrda maydonga kelgan.

Dramaturg ijodining shoh asarlari — «Yuliy Sezar» (1599), «Hamlet» (1601), «Otello» (1604), «Qirol Lir» (1605), «Makbet» (1606), «Antoniy va Kleopatra», «Koriolan» (1607) singari tragediyalar Shekspir ijodining 3-davrini tashkil etadi. «Genrix VIII» (1613) xronikasi, «Qish ertagi» (1611), «Bo‘ron» (1612) romantik drama va tragediyalari esa Shekspirning so‘nggi davr ijodi mahsulidir.

Shekspir o‘z asarlarini yaratishda Xolinshedning Angliya tarixiga oid syujetlarga boy «Angliya, Shotlandiya va Irlandiya xronikasi»dan samarali foydalangan. Shekspir tarixiy tragediyalarining maydonga kelishida Plutarxning «Qiyosiy hayotnomalar», komediyalarining yozilishida esa M. Bandelloning Italiyaning Uyg‘onish davriga oid hikoyalari asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan. «Romeo va Julyetta», «Hamlet», «Qirol Lir» singari tragediyalarga asos bo‘lgan syujetlar asosida Shekspirga qadar ham sahna asarlari yaratilgan. Lekin bu syujetlar Shekspirga xos ulkan dramaturgik mahorat tufayli jahonshumul fikr va g‘oyalarni ifodalovchi o‘lmas asarlarning yuzaga kelishida hayotiy manba vazifasini bajargan. Shekspir o‘zigacha bo‘lgan Yevropa xalqlari tarixi, adabiyoti va teatrini o‘rganish bilan birga 17-asrning ilg‘or tafakkur mevalaridan ham bahramand bo‘lgan va shu asosda ularni o‘zining eng yaxshi asarlarida katta badiiy kuch bilan mujassamlantirgan. Har bir tarixiy davrda kuzatilganidek, Shekspir yashagan davr ham ziddiyat va karamaqarshiliklardan xoli bo‘lmagan. Shekspir, boshqa yozuvchilardan farqli o‘laroq, o‘z davri hayotidagi bunday ziddiyatlar, ijtimoiy hayot va kishilar taqdiridagi murakkabliklarni nozik his etgan hamda shu bilan kifoyalanib qolmay, jamiyat va inson hayotining qaltis nuqtasida yuzaga kelgan dramatismni tasvirlashga alohida e‘tibor bergan. U haqiqiy dramaturg sifatida personajlarning u yoki bu xatti-harakatlarini keltirib chiqargan ijtimoiy, maishiy, ma‘naviy va ruhiy sabablarni ochib tashlab, ularning har biriga o‘z xulq-atvoridagi keskin o‘zgarishlarni to‘la asoslash yoki izohlash imkonini yaratgan.

Shekspir ijodining 2-davrida poetik drama ustasi sifatida namoyon bo‘lgan. U shu davrda qarama-qarshi qo‘yish usullaridan voz kechmagan holda dramatismga katta e‘tibor berib, tragik va komik motivlarni o‘zaro uyg‘unlashtirdi. Shuning natijasi o‘laroq Shekspir ijodida («Romeo va Julyetta», «Richard II», «O‘n

ikkinchi kecha») dramatik lirizm avj nuqtasiga erishgan. Shekspir ijodining 3-davrida tragediya janriga mansub asarlar yetakchi o'cini egallaydi. Dramaturg Uyg'onish davriga xos gumanizm va insonparvarlik g'oyalari bilan voqelikda tobora rivojlanib borayotgan xudbinlik, munofiqlik, yovuzlik o'rtasidagi ziddiyatni ko'rib, shu ziddiyatlarni o'z asarlariga konflikt sifatida jalb etadi. U xuddi shu davrda yaratgan tragediyalarida badiiy mahorat cho'qqisiga erishgan. Shekspir ijodining so'nggi davriga oid romantik drama va tragik komediyalar uning dunyoqarashida hayotiy ziddiyatlarni ijobiy hal qilish mumkin, degan umid paydo bo'lganidan guvohlik beradi.

Shekspirning butun ijodini nurlantirib turuvchi fazilat yuksak axloqiyma'naviy muammolarning tasviridir. «Romeo va Julyetta» lirik, «Yuliy Sezar» siyosiy, «Hamlet» intellektual tragediya, «Ogello» esa ehtiroslar tragediyasi hisoblansada, ular zamirida o'rta asarlar uchun ham, hozirgi zamon uchun ham katta ahamiyatga molik bo'lgan axloqiy masalalar yotadi. Agar «Yuliy Sezar», «Hamlet», «Makbet», «Romeo va Julyetta» singari asarlarda tasvirlangan dramatik konflikt qahramonlarga o'zini bilish, o'zining ruhiy kuchini ro'yobga chiqarish imkonini bergan bo'lsa, Otello, Lir singari adashgan qahramonlar ongi faqat fojea ro'y berib, muqarrar halokat yaqinlashganidan keyingina nurlanib ketadi. Shunga qaramay, ularning har biri va umuman Shekspir asarlarining qahramonlari asosan kat'iy xarakterga ega bo'lgan, ongi va axloqiy qarashlari shakllangan, voqelikka hushyor ko'z bilan qarovchi, kuchli va mard insonlardir.

Shekspir komediya va tragikomediya janrlarida ham yuksak san'at asarlari yaratgan. Uning Uyg'onish davri romantikasi bilan sug'orilgan, qishloq hayoti manzaralari tasvirlangan, sarguzashtbop voqealarga boy komediyalari markazida har qanday to'siqni yengib o'tuvchi muhabbat mavzui yotadi. Shekspir tragediyalarida bo'lgani singari, komediyalaridagi qahramonlarning nutqi ham o'tkir va chuqur fikrlarga, piching va hazilmutoyibalarga boy.

Shekspirning o'zbek tomoshabini tomonidan kashf etilishi 1935-yilda — «Hamlet» tragediyasining Hamza nomidagi drama teatri (hozirgi O'zbek milliy akademik drama teatri)da sahnalashtirilishi bilan boshlangan. Shundan keyin

O'zbekistondagi o'zbek va rus teatrlarida Shekspirning «Otello», «Romeo va Julyetta», «Yuliy Sezar», «Qirol Lir», «Koriolan», «Veronalik ikki yigit», «Qiyiq qizning quyilishi», «Yoz tunidagi g'aroyib otlar» singari asarlari katta muvaffaqiyat bilan qo'yildi. Shekspir asarlarini tarjima etishda G'afur G'ulom, Yashin, Uyg'un, Shayxzoda, Turob To'la, Q.Mirmuhamedov kabi yozuvchi va tarjimonlar ishtirok etdilar. So'nggi-yillarda Jamol Kamol Shekspir asarlarini bevosita ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qildi. Cho'lpon qalamiga mansub «Hamlet»ning tarjimasini esa o'zbek tarjima san'atining shoh namunasi hisoblanadi.